

ZAMONAVIY KOMPYUTER VA INTERNET TERMINOLOGIYASINING  
SHAKLLANISHIDAGI EKSTRALINGVISTIK OMILLAR

*Xolmatova Asalxon Qodirjon kizi*

*Ingliz tili fani o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti*

[asalsolijonova17@gmail.com](mailto:asalsolijonova17@gmail.com)

*Jurayeva Maftuna Erkin kizi*

*Ingliz tili fani o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti*

[maftunajurayeva1209@gmail.com](mailto:maftunajurayeva1209@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy kompyuter va internet terminologiyasining shakllanishidagi ekstralingvistik omillar keltirilgan. Terminologiya, terminologik birliklar o'rganilgan. Kompyuter va internetda kuzatiladigan yangi yangi birliklar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** terminologiya, kompyuter, terminlar, internet funksiyasi, ixtiro, axborot texnologiyasi.

**Kirish.** Barcha sohalardegidek, kompyuter va internet sohasida ham terminlarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad kompyuter va internet terminlariga bo'lgan talab-ehtiyoj bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishdir. Chunki, hozirgi kunda jamiyat hayotida kompyuter va internet qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish, rivojlantirish va undan unumli foydalanish uchun mazkur soha terminlari ham shunchalik muhim ahamiyatga ega. Demak, kompyuter va internet sohasi terminlarini me'yorlashtirish va tartibga solish ilmiy va ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molikdir. Biroq, tilimiz so'z boyligining salmoqdor qismini tashkil etgan va rivojlanib borayotgan kompyuter va internet sohasi terminlarini har tomonlama o'rganish – ya'ni lingvistik xususiyatlarini ochib berish, ma'no va shaklini, o'zlashishi hamda yasalişhini tartibga keltirish tadqiqotimizning mazmunini belgilaydi. Motivlanganlikning eng to'liq ifodasi termining tizimlilik, ya'ni termin tuzilmasida nomlanayotgan tushunchaning boshqa tushunchalar bilan aloqasi va bu tushunchaning mazkur tizimdagi o'rnini aks ettirish imkoniyatidan iborat.

Terminning maqbul xususiyati uning semantik shaffofligidan iborat, u termin tomonidan ataladigan tushuncha haqida tasavvurni shakllantirish imkonini beradi. Terminologik me'yor umum lisoniy me'yorga asoslanadi, biroq unga mos kelmasligi ham mumkin. Bular qatoriga sohaviy jargonlarni kiritish mumkin. Jumladan, bir qator terminologiyalarda mutaxassislar tomonidan qabul qilingan urg'u o'zgarishlari, so'z yasash qoidalari va h.k. Internet xizmati turlariga elektron sahifa, elektron pochta, telekonferentsiya, fayllarni uzatish, domen nomlari, Telnet IRC yoki Chat

konferentsiya, malumotlar izlash xizmati kabilar kiradi. Kompyuter va internet termin tizimi ochiq va samarali tizim hisoblangani uni tadqiq etishning ko‘lamini kengayishiga sabab bo‘ladi. Ma’lumki, har qanday terminologik tizim doimiy ravishda yangi terminlar bilan to‘ldirilib boriladi, mavjud terminlar esa semantik, grafik va grammatik o‘zgarishlarga uchrayveradi. Kompyuter va internet terminlari bundan holi emas. Internet bir-biri bilan bog‘langan kompyuterlarning yagona butunjahon tarmog‘i hisoblanadi. Internetning ikkita asosiy funktsiyasi mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:<sup>1</sup>

- 1) informatsion funktsiya;
- 2) kommunikatsion funktsiya.

Biz kompyuter va internet terminlarini biz umumsohaviy ya’ni, umumadabiy bo‘lgan terminlar qatoriga kiritish tarafdorimiz. Terminga qo‘yiladigan talablarni terminning shakliga qo‘yiladigan talablar guruhi, uning mazmuniga qo‘yiladigan talablar va termindan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan asoslangan spetsifik talablarga bo‘lish mumkin.

Bundan kelib chiqib o‘z mavzu doiramizda tahmin qilishimiz mumkinki, terminlarni me’yorga solish tartibga solingan terminologiya – termin tizimi mos kelishi lozim bo‘lgan talablar asosida o‘tkaziladi. Kuzatishlarimiz stol kompyuteri tizimi, taqsimlangan dasturiy vositalar, axborot, tarmoq ma’muri, axborotlashtirish, axborot vositalari, xatolarni aniqlovchi dasturiy vositalar, axborot egasi, axborot tizimlari mulkdori kabi kompyuter va internet terminlari bir-birini taqozo etuvchi uzviy bog‘lanishdagi jarayonlarni anglatuvchi tushunchalar sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Axborot texnologiyalarining takomillashib borishi hamda tarmoqlari sonining ortib borishi milliy adabiy tilda yangidan-yangi sohaviy nomlarining paydo bo‘lishi mazkur tilda terminlarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Bu o‘z o‘rnida o‘zbek milliy til tizimini sohaviy terminlar orqali boyishiga ijobiy ta’sir o‘tkazmoqda. Lekin masalaning ikkinchi tomoni bor.<sup>2</sup> Har doim ham ushbu soha terminlarining o‘zbekcha yasamalarni sifat jihatdan muvofaqiyatli yaratilgan deb bo‘lmaydi. Masalan, D. Kadirbekova axborot texnologiya sohasidagi terimlarining o‘zbekcha yasamalarni sifat jihatdan muvofaqiyatli yaratilgan deb bo‘lmaydi deb hisoblaydi.

Kompyuter va internet terminlarida bu holat kuzatiladi: information service - axborot xizmati yoki axborot servis (gibrid shaklida), information war - axborot jangi, machine word - mashina-so‘z (gibrid), computer aided translation - kompyutertarjima, mashina-tarjima (gibrid), protection manegment - muhofaza boshqaruvi, hang - uzilishli uzatish, developer - yaratuvchi, Lampel-Ziv coding - Lempl-Ziv kodi deb berilishini tavsiya etish mumkin. Ushbu variantlarda ixchamlik (qisqalik), aniqlik va bir ma’ nolilik kabi xususiyatlar mavjud bo‘lib, ular terminlarga qo‘yiladigan talablar to‘la mos keladi.

<sup>1</sup> Ахматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати – Т., 1984.

<sup>2</sup> Абдиев С. Ўзбек тилининг соҳавий лексикасини тадқиқ этиш: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003.

Kompyuter va internet terminlarining o‘zbekcha yasalmalari lingvistik nuqtai nazardan o‘rganilmaganligi sababli, albatta ayrim xato va kamchiliklardan xoli, deb bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, kompyuter va internet terminlarini o‘rganish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish, mazkur soha bo‘yicha terminologik lug‘atlar va ilmiy adabiyotlar yaratish dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy kompyuter va internet terminologiyasining shakllanishidagi ekstralingvistik omillardan biri – fan-texnika sohasida ixtiro qilingan yangi kashfiyotlar asosan XX asr boshlarida radioelektronika sohasida yuzaga kelgan bo‘lib, aloqa tizimiga bevosita bog‘liq bo‘lgan radioelektronika sohasida mikroelektornikaning rivojlanishi mikroelektron industriyani vujudga kelishini ta‘minladi. Bu jarayon milliy til tizimiga yangidan yangi tushunchalarni kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim omildir. O‘zbekiston zamini azaldan insoniyat tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan, dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo‘nalishini muayyan darajada belgilab bergan ulug‘ allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan.<sup>3</sup> Hozirda ham O‘zbekiston olimlari buyuk ajdodlari an‘analarini munosib davom ettirib, mustaqil yurtimizning ilm olamidagi taraqqiyoti yo‘lida keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib bormoqda va mamlakatimiz ilm-fanini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda va bu, hech shubhasiz, olamshumul yutuqlarga erishishga xizmat qiladi.

Davrning o‘zi ham olimlarimiz oldiga yangidan-yangi vazifalar qo‘ymoqda. O‘zbekiston ilm-fanining muvaffaqiyati olimlarimizning ushbu vazifalarni samarali hal etishi, taraqqiyotning yangi yo‘li va shakllarini taklif etishiga bog‘liq.

1991 yilda O‘zbekistonimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi butun xalqimiz, jumladan, mamlakatimiz ilmiy va ijodiy jamoatchiligi uchun ham ulkan tarixiy voqea bo‘ldi. Ilm-fan rivojida mutlaqo yangi davrni boshlab berdi va xolis ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar eshigini ochdi. Xususan, o‘zbek tilimizga davlat tili maqomining berilishi bilano‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida ham bunday salmoqli o‘zgarishlar o‘z aksini topdi.

Bilamizki, hozirgi kundagi kompyuter texnologiyalarining yuqori rivojlanishi va ilmiy-texnik axborotning kengayishi munosabati bilan informatsion texnologiyalarning amaliy ahamiyati oshib bormoqda. Bugungi kunda informatsion texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyoj tufayli o‘zbek tilshunosligida mazkur sohalar terminlari sistemasini lingvistik tadqiq qilish, shu sohada to‘xtovsiz yangi lug‘atlar tuzish kabi muammolar o‘z yechimini kutmoqda. Informatsion texnologiyalar tili o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda ishlatilayotgan terminlar, qisqartmalar xalqning moddiy va ma‘naviy hayoti bilan aloqadordir. Xususan, o‘zbek tili axborot– kommunikatsiya terminlarining turli jihatlarini tadqiq qilish, ularni mavzuiy guruhlariga tasniflash, terminologiyaning boyish

<sup>3</sup> Ақобиров С. Тил ва терминология. – Т., Ўзбекистон КП МКнинг бирлашган нашриёти, 1968. – 39 б.

manbalarini aniqlash va terminlarni tartibga solish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muhtaram birinchi prezidentimiz I.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlaganidek: «Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy izlanishimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bankmoliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanilish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz».<sup>4</sup> Ushbu teran mazmunli, chuqur mantiqli fikrlar tilshunoslikka, xususan, o'zbek tili axborotkommunikatsiya terminologiyasiga bevositaaloqadordir. Tilshunoslikda bugungi kunda yaratilayotgan qator tadqiqotlar, izlanishlar aynan shu talablardan kelib chiqadi.

Haqiqatan, O'zbekiston hayotida sodir bo'layotgan ulkan o'zgarishlar ona tilimizda o'z lisoniy ifodasini topmoqda. Jumladan, axborot-kommunikatsiya sohasining yuksak darajada rivojlanishi va ilmiy-texnik axborotning kengayishi munosabati bilan o'zbek tilida axborot-kommunikatsiya terminologiyasi shakllandi. Bugungi kunda ushbu terminologiyani har tomonlama tadqiq qilish dolzarb muammo hisoblanadi. Mazkur terminologik sistemaga mansub birliklarning o'rtasidagi semantik munosabatlar, terminlarning semantik-struktur xususiyatlarini aniqlash, terminlarni tartibga solish muammolarini maxsus o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tilshunoslar uchun ham, axborot-kommunikatsiya-aloqa soha vakillari uchun ham birdek ahamiyatlidir.

Terminlar til lug'at boyligining zamonaviy qatlamiga xos, vazifasi va iste'moliga ko'ra ilmiy-texnik uslub tili va nutqiga xos so'zlar hamda so'z birikmalari bo'lib, avvalo, nominativlik xususiyati bilan ajralib turadi. Ma'lumki, tilning lug'at boyligi doim o'zgarishda. Zamonga nisbatan ijtimoiy tuzum, fan, texnika va madaniyatning o'sib, rivojlanib borishi leksikada aks etganidek, sohalar va ularning terminologiyasining o'zgarib turishida ham o'z ifodasini topadi: terminlar ham eskirishi va yangilanishi, o'zaro sinonim va variantli bo'lishi, terminlararo omonimiya va giponimiya munosabatlari mavjud bo'lishi ham mumkin. Bu munosabatlar asosan matn, xususan, gap doirasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Axborot-kommunikatsiya sohasining yangiligi, lekin zamon nafasi bilan uyg'un ravishda jadal rivojlanib borayotganini, soha terminologiyasini ham yuqori darajada ushlab turish uchun til boyligining imkoniyatlaridan foydalanish, boshqa xorijiy tillardan so'zlarni o'zicha qabul qilish, kalkalash yo'li bilan o'zlashtirish ishlari ham olib borilmoqda. Axborotkommunikatsiya sohasi terminologiyasini yo'lga qo'yish bilan

<sup>4</sup> Ахатова М. Ўзбек тили ёғочсозлик терминологияси. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2004.

bog'liq holda yuzaga kelgan bu yangi omonimik qatorlar, shu kungacha tilimizdagi so'zlarning ma'no ko'lamini sohada qo'llanish bilan beqiyos kengayib, natijada omonimik holatlar ham ko'payishi uchun asos bo'layotgani mutaxassislarni o'ylantirmoqda. Axborot-kommunikatsiya sohasi terminlari va omonimiya munosabati o'rganilgan qism soha terminlarini filologiya fanlari doktori, professor Sh.Rahmatullaevning «O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati» (1984) asosida tahlil qilish bilan yuzaga keldi.<sup>5</sup> Lug'atdagi bit, gamma, mijoz, pul, sim, til, chop, ekvivalent, efir, qurt shaklli omonim so'zlar, vertikal, gorizont, magistral, parallel omofonlari, tok, ton omograflari o'rganilib, tahlil qilindi va munosabat bildirildi. Shuningdek, lug'atda uchramagan, hozirgi zamonaviy sohada qo'llanayotgan muhit, fon, kalit shaklli so'zlarning omonimik va polisemantik xususiyatlari yoritildi.

**Xulosa.** Hozirgi kunga kelib sohaga bo'lgan e'tiborning kuchliligi, o'zbek tilining davlat tili sifatida faoliyati kengayganligi, kundalik turmushimizda zamonaviy aloqa vositalari, axborotning Internet kabi ko'p kanalli manbasi borgan sari faollashayotgani, tabiiyki, yangi-yangi terminlarni talab qiladi. Ularning o'zbek tiliga o'z ichki imkoniyatlari asosida ko'payayotgani ma'lum. Lekin bu yo'l bilan terminlarga bo'lgan ehtiyoj hech qaysi tilda, jumladan, o'zbek tilida ham to'la qoplanishi qiyin.<sup>6</sup> Demak, endi tillarning bir-biriga o'zaro ta'siri, ya'ni soha leksikasini tashqi manbalar hisobiga boyitish, o'zbek tilining soha faoliyati bo'yicha boshqa tillar bilan kontakti, ulardan so'zlar, affiksial morfemalar olishi, o'zlashtirishi masalalarini ham ko'rib chiqish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати – Т., 1984.
2. Абдиев С. Ўзбек тилининг соҳавий лексикасини тадқиқ этиш: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003.
3. Ақобиров С. Тил ва терминология. – Т., Ўзбекистон КП МКнинг бирлашган нашриёти, 1968. – 39 б.
4. Аҳатова М. Ўзбек тили ёғочсозлик терминологияси. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2004.
5. Ахмедов. О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанлари докт. дис... автореф. – Тошкент, 2016.
6. Jurayeva M.E. Media discourse features. Международный научный «Научный импульс» журнал № 3 (100), часть 1 Октябрь, 2022
7. Maftuna Erkin qizi Jurayeva, Shahnoza Zaitjon qizi Djumabayeva. Mediata'lim OAV va kommunikatsiyaning bir qismi. Scientific progress. Volume4\Issue4\2023, 234-241
8. Pulatova K,A. Jurayeva M.E, & Yusufjonova F,Q. (2023). Inglizcha-ruscha axborot kommunikatsiya texnologiyalari terminlari tarjimasini. Tadqiqotlar, 13(6), 62–67.
9. Jurayeva M,E. Pulatova K,A. & Yusufjonova F,Q. (2023). Mediadiskursni tashkil etish tamoyillari, tarkibiy va semantik tashkil etilishi . Tadqiqotlar, 13(6), 71–76.

<sup>5</sup> Ахмедов. О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанлари докт. дис... автореф. –Тошкент, 2016.

<sup>6</sup> Исломов И. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини: Филол. фан. док-ри дисс... – Қарши, 2021.